

## IBROHIM DAVRON PUBLITSISTIKASI

**Qodirova Muhayyoxon**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Qo‘qon DPI*

**Annotatsiya:** *Ibroxim Davron mohir publitsist sifatida ham adabiyotimiz tarixida muhim o‘rin egallaydi. O‘z davrining hozirjavob adibi bo‘lgan bu inson jamiyat hayotidagi eng dolzarb muammolarga munosabat bildirdi. Hayotda uchrovchi kamchiliklarni ayovsiz tanqid qildi. Uning nazaridan xech bir narsa - maktab va maorif sohasidagi nuqsonlar xam, muallimlarning layoqatsizligi ham, ayrim kimsalarning millat hayoti va taqdiriga beparvoligi xam, bid‘at va xurofotlar, quyingki, nimaiki dolzarb bo‘lsa, shu narsaga e‘tiborini qaratdi, shu millatning bir vakili sifatida o‘z karash va mulohazalarini bayon qildi. Uning publitsistik maqolalari saviyasining yuqoriligi, ko‘tarilgan masalalarning muhimligi, bayon usulining jonliligi va hayotiyiligi bilan qalamkash birodarlari Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Hamza, Avloniy publitsistikasi bilan bimalol bellasha oladi.*

**Kalit so‘zlar:** *jadid, matbuot, xalq millat, maorif, gazeta, nashr.*

**Аннотация:** *Ибрагим Даврон, как выдающийся публицист, также занимает важное место в истории нашей литературы. Этот человек, являвшийся одним из самых актуальных в жизни общества. Безжалостно критиковал недостатки жизни. Он обратил внимание на то, что недостатки в сфере школьного и просветительского дела - хам, недостойность учителей, неуважение некоторых людей к жизни и судьбе нации, а также на то, что они чувствуют, если они актуальны. Его публ - личностный уровень, важность поднятых вопросов, живучесть и жизнеспособность речевого метода могут безоговорочно отличаться публицистикой братьев Бехбуди, Фитрата, Чулпана, Хамзы, Авлония.*

**Ключевые слова:** *жадид, пресса, народы, маориф, газета, издание.*

**Annotation:** *Ibrahim Davron occupies an important place in the history of our literature as a skilled publicist. This person, who was a contemporary writer of his time, responded to the most urgent problems in the life of the society. He ruthlessly criticized the shortcomings encountered in life. From his point of view, he focused on nothing - defects in schools and education, incompetence of teachers, carelessness of some people to the life and fate of the nation, heresy and superstitions, whatever was relevant, and as a representative of this nation, he expressed his views and opinions. stated. With the high level of his journalistic articles, the importance of the raised issues, the vividness and vitality of the narrative method, he can easily compete with the journalism of his pen brothers Behbudi, Fitrat, Cholpon, Hamza, Avloni.*

**Key words:** *jadid, press, nation, education, newspaper, publication.*

“Tarix xotirasi xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglashni, ta‘bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”. Zero, tarix xotirasisiz mustahkam kelajakdan umid qilish, farovon, ozod va obod yurt ravnaqi hakida o‘ylash dushvor. Jadid allomalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy xazratlarining purma‘no so‘zlari bilan aytganda, “moziy - istiqbolning tarozisi”dir. Chindan ham, yurtimiz, xalqimiz tarixining turfa saxifalarini ko‘zdan kechirish, ularni jiddiy va chuqur o‘rganib muhofaza qilish, xo‘lis turib baholash orqaligina mustaqilligimizning mohiyatini

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

anglash mumkin bo‘ladi. Shunday ekan, o‘z ulug‘vor tarixi, mavjud tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlariga tayangan xolda o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan borib, dunyo hamjamiyatida obro‘-e‘tibori ortib borayotgan O‘zbekistonimizning istiqboli birinchi galda xalqimizning yuksak ma‘naviyatiga, kishilarimizning yaratuvchilik mehnatiga bog‘likdir. Milliy uyg‘onish davri ma‘rifatparvarligi, adabiyoti, matbuoti va teatri deganimizda, birinchi navbatda, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon singari porloq nomlar ko‘z oldimizga keladi. Ammo ular bilan birga usuli jadid maktabi, zamonaviy adabiyot, milliy matbuot va teatr san‘atining paydo bo‘lishi hamda shakllanishiga katta hissa qo‘shgan boshqa bir qator siymolar ham borki, ular nomini, ularning adabiy-ma‘rifatparvarlik faoliyatini chetlab o‘tish adolatdan emas. Shunday siymolardan biri shubxasiz, Ibroxim Davrondir.

Nazarimda, yer yuzidagi mamlakatlarda boshqa biror shahar yo‘qki, unda Qo‘qondagidek ko‘plab shoir va yozuvchilar tug‘ilib ijod qilgan bo‘lsinlar. Shu manoda biz, Sobir Abdulla ta‘biri bilan aytganda, “shoirilar shahri. fozillar faxri” Qo‘qon bilan hakli ravishda faxrlanishimiz mumkin.

Ibroxim Davronning XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitida tutgan o‘rni nixoyatda katta. Bu davrda nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki umuman o‘zbek jamiyatida yangilanish jarayoni kechdi. Uzoq asrlar davomida rivojlanib kelgan o‘zbek mumtoz adabiyoti ilk bor yangi tarixiy davr kelganini tushunib, shu davr talablaridan kelib chiqqan holda o‘zining an‘anaviy - g‘oyaviy yunalishini o‘zgartirdi: o‘z oldiga jamiyatni tubdan o‘zgartirishga qodir yoshlarni tarbiyalash vazifasini qo‘ydi. Shu vazifani bajarish jarayonida adabiyotning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi. adabiy tilni xalq ommasi tiliga yaqinlashtirdi, yangi she‘riy shakllarni ishlab chikdi. Ibrohim Davron ana shu adabiy jarayonning - yantilanish jarayonining markazida turdi. Hamza, Sobir Abdulla, Usmon Nosir, Amin Umariy singari qo‘qonlik shoir va yozuvchilar Ibrohim Davronning adabiy tajribalaridan foydalanib, u boshlab bergan an‘analarni dadil davom ettirdilar va yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishida faol ishtirok etdilar. Ibrohim Davron qo‘qonlik bu va boshqa yozuvchilarning yangi avlodiga har tomonlama usgozlik qildi, usuli jadid maktablarini ochdi; rus-tuzem maktabida o‘kigani uchun arab va fors tillari qatorida rus tilidagi adabiyotdan ham bahramand bo‘lib va boshkalarni ham baxramand etib yashadi; 1904-yilda Qo‘qonda birinchi fotografiyani tashkil etdi; o‘zbek xalqining shu davrda har taraflama taraqqiyot cho‘qqisiga erishgan va boshqalarni xam shu cho‘qqi sari yetaklagan farzandlaridan biri bo‘ldi.

Jadid adabiyotida publitsistik maqolalar yetakchi o‘rinni egallaydi. Adabiy-badiiy asarlar jadidlarning ma‘rifiy faoliyatida nechog‘lik muhim o‘rin tutgan bo‘lsa.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

publitsistik maqolalar ham xalq ongining o‘zgaruvi hamda taraqqiysida undan-da muhimroq ahamiyat kasb etdi. Hamza, I.Davron, A.Zohiriy kabilarning publitsistik, adabiy-tanqidiy chiqishlari, shubhasiz, jamiyat hayotining qaysidir bir jabhasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bu borada felyeton janrining mavqeyi alohida bo‘lganligini ta’kidlash o‘rinlidir.

Ayrim manbalarda I.Davron Zokirjon Furqatning felyetonchilik sohasidagi izdoshi sifatida tilga olinadi. Darhaqiqat, I.Davron matbuot sahifalarida o‘zining turli xil mavzudagi maqolalari bilan faol ishtirok etib turgan. U ustozlari Furqat kabi o‘z felyetonlarida xalq manfaatlarini himoya etgan. Xalkning risoladagiday yashashiga tusiqlik bo‘layotgan kuchlar, manfaatparast kimsalar, riyokor ruxoniylar, xudparast boylar, ta’magir shayxlarni qattiq qoralagan, xalq urf-odatlaridagi ayrim illatlar ustidan kulgan, utkir til bilan bu nuqsonlarni fosh qilgan. Adibning “Xo‘qand, Sux mozor” felyetoni adibning matbuotda chop etilgan ilk tajribalaridan hisoblanadi. Bularidan tashqari, “Redaksiyaga maktub”. “Yangi ixtiro”, “Xo‘qandda pork sayohati” “Xudbinlik yoki vijdonsizlik” maqolalari muvaffaqiyatli chiqqanligini e’tirof etish lozim. I.Davron “Xo‘kand, Sux mozor” deb atalmish mo‘jaz asarida xalq orasida yashab kelayotgan xurofiy illatlarni, jumladan, mozorlarga sig‘inish, ayrim qabrlarni tavof qilishni qoralaydi. Malumki, Qo‘qonning Shark tarafida joylashgan Sux mozor qadimdan “muqaddas” sanalib kelingan. Ayrim kimsalar, xususan ayrim ta’magir shayxlar mazkur mozoristonni o‘zlarining manfaatlariga xizmat kildirib, bu maskanni asosan ayollarning sig‘inish maskaniga aylantirib olgan edilar. O‘z davrining ziyolisi bo‘lgan, diniy va dunyoviy bilimlardan yetarli ma’lumotga ega I.Davron ushbu mozorda hukm surgan be’mani bid’atlarni fosh etishga astoydil bel bog‘lagan. Felyetonda ma’lumot berilishicha, bu mozorga asosan ayollar tashrif buyurishgan, ular faslning qaysi bir payti issiqmi-sovuqmi demay, har chorshanba ushbu mozorga kelib, 3 yoki 7 da’fa yumalab, shu joyning egalari aylangan kimsalarga nazru niyoz qiladilar. “Sux mozor sababidan maraz (kasal)ga mubtalo bo‘lganlarni ham ko‘rib turibmiz”, - deb yozadi adib. Ushbu qayd shundan dalolat qiladiki, “muqaddas” sanalgan bu mozor xotin-qizlar dardiga aslo shifo bermagan, askincha, ularning bir dardiga o‘n dard ko‘shgan. Faqatgina ular o‘zlariga psixologik ta’sir o‘tkazib tuzaldik deb yengillik his qilganlar.

I.Davron Sux mozordagi bu g‘ayrioddiy bid’atlarni fosh etishda mavzu ichiga atayin chuqur kirib borgan, riyokor “ruxoniy” larning kirdikorlarini har tomonlama o‘rgangan, mozor mutasaddisini majusiy, mozorning o‘zini musulim va musulimalar mozori emas, “majusiylikka taallukli mozor” deb atashgacha borib yetgan. Muallifning bunday xulosa chiqarmog‘iga, albatta, yetarli sabablar mavjud edi. O‘sha kezlarda biror kimsa shariatga xilof ish tutsa, uni majusiy deb atash din peshvolari o‘rtasida urfga

aylanib qolgan edi.

Adibning ancha muvaffakiyagligi chiqqan felyetonlaridan yana biri “Yangi ixtiro” deb nomlangan. Mazkur felyeton shunisi bilan eʼtiborga loyiqki, unda ilm-maʼrifat borasidagi yangiliklar, ularning inson hayotidagi oʻrni, taraqqiyotga toʻsiq boʻlayotgan qora kuchlar, ayniqsa jaholatga mukkasidan ketgan amaldorlar, ular orasida hukm surayotgan sansalorlik, takabburlik, manfaatnarastlik va mansabparastlik illatlari koralanadi. Bu belgilar asar muqaddimasidayoq koʻzga aniq tashlanadi: “Amriqo. Olmoniyo, Fransiyo va mamoliki Afronjiyo (Yevropa mamlakatlari - M. Q.)da koʻz koʻrmas, quloq eshitmas, diydai jahon koʻrmas aqllarga hayrat berajak yangi ixtiroʻot chiqib, kundan-kun xamma madaniy olamiylikni shoshirmokda oʻldiki, bir zamonda, bilʼaks ”bizning maʼdaniy hosil etdikmu“, usuli jadid maktabiga muxolif, ilmi jugrofiyo, xandasai davri olam, falakiyoti texnikaya va kiziqiya va soira jaʼmi ilm-madaniyatdin muztozona harakatdami?” Adibning uqtirishicha, Garb mamlakatlarida ilm-fan, texnikada turli-tuman ixtirolar yaratilib, muvaffakiyatlar qoʻlga kiritilayotgan bir zamonda bizda ushbudek yangi- yangi“ixtirolar” uchraydi:

bir povlida er va xotin urishib, ellikboshiga agar (bir) marotaba 50 tiyindan bermasa, albatta, ellikboshi ikkinchisini tafriq etmoq fikriga tushar, oxir roʻzgʻorlarini buzar;

- ... mahallada kardonboy boʻlsa va 5-4 bob hovlisi boʻlsa ham. podsholik soliq olmay, kambagʻallardan soʻrab oladur;

- ... bir kishining qiziga kuyov chiqsa, kuyov tarafiga qizni, qiz tarafiga kuyovni yomonlashib, ikki tarafdin birini baxtsiz qiladur;

- ... bir tarafdin, taftishi shaxe uchun “isfarofka” (maʼlumotnoma) chiqsa, bir maʼsum kishini bulgʻab koʻrsatmak;

- ... ikki-uch xotin ustiga toʻrtinchi xotin olib, baʼzi sigʻishmaganidan taʼziri tafrik deb, jabrga nakd aqcha olib tamoq qilmak;

- ... Abdurashid Abdurazzokov kabi hamisha iltimos vakillarini sudʼyaga berub, uy pechatlatmok, 50 tiyindan sumgacha risvo (chutal) olmak...:

-... meroslik boy xotin olib, aqchasi kulga kirgan kuni L.X. kabi (bu gumashta Laxtin; Muqimiyning shu nomli bir xajviyasida keltirilgan. Bumbayga qochmak.

...Bular hammasi biz tarafdin yangi ixtiro emasmu?“

Keltirilgan iktiboslar usha paytdagi axvolning, xalk orasida keng tarkalgan turli odat va bidʼatlarning manzarasini aniq, ochiq-oydin koʻrsatib turibdi.Oʻsha paytdagi johil kimsalar, nopok shaxslar, taʼmagir amaldorlarni qiyofasi oshkora chizilgan. Qayerdagi johiliyatning qoʻli baland kelar ekan, maʼrifat yoʻliga oʻgʻganoq boʻla oladigan kuchlar mavjud ekan. taraqqiyot yoʻliga toʻgʻonoq boʻlib turaveradi. I.Davron mazkur “ixtiro”larni besabab keltirayotgani yoʻq. Bu asrimiz boshlarida odat tusiga kirib

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

borgan nuqsonlardan ayrimlari xolos. Ular ancha yillar hukm surib keldi. Afsuski, ularning ayrim kurinishlari bugungi kunimizda-da uchrab qoladi.

Yevropa ilm-fani, madaniyati ulkan yutuqlarga erishayotgani, ilm-fanning halq manfaatlariga xizmat qilishi uchun sa'y-harakat qilinayotgan paytda I.Davron keltirgan “ixtirolar”ning bo‘lishi chidab bo‘lmas bir xol edi. Adib ikki xil shakl, ikki xil mazmundagi “ixtirolar”ni qarama-qarshi qo‘yib, jamiyat va millat tarakkiysiga erishmok uchun, tom ma’noda! i, ma’rifat etagi- ni tutmok, shu bilan kifoyalanmay, ma’rifat yangiliklarini xatkka xizmat kildirmok kerak, degan fikrni bildiradi.

Adibning e’tiborga loyiq publitsistik asarlaridan yana biri “Xo‘qandda pork sayohati” felyetoni bo‘lib, u mavzusining dolzarbligi, hayotni haqqoniy ifodalashi, badiiy ifodadagi lo‘ndaligi bilan alohida ajrapib turadi. Felyeton xajman unchalik katta emas, ixchamgina. Ammo unda kutarilgan bir masala jamiyatning, millatning chidab bo‘lmas og‘riqlardan biridir.

Felyetonda chor amaldorlarining Xo‘qanddagi barcha istirohat bog‘larini o‘zlariniki qilib egallab olganliklari, mabodo mahalliy xalq vakillaridan biror kimsa adashib kirib qolsa, politsiya va qoravullar tomonidan itday xor kilib, quvilishi yoki kaltaklanish, xatto besh-olti kun qamab qo‘yilishi afsus va nadomat bilan tilga olinadi. Ko‘rinib turibdiki, I.Davron ushbu o‘rinda milliy tengsizlik, irqiy kamsitish, o‘zgalar tuprog‘ida turib, haqiqiy yer egalarini nazar-pisand qilmaslik singari chor amaldorlarining g‘ayriinsoniy, o‘zboshimcha xatti- harakatlarini ko‘rsatishga urg‘u berib, bu xolatlarni felyeton markaziga olib chiqmoqda. Albatga, ushbu holat maqola bosilgan davr (1909-yil 6-avgust) uchun katta jasorat edi.

Qolaversa, mazkurning “Turkiston viloyati gazetisi”da chop etilishi ham aql bovar qilmaydigan holatdir. Mustamlakachi kuchlar manfaatlarini himoya qilmoq va N.Ostroumovdek bir millatchi (bu o‘rinda “millatchi” kalomini ishlatishga haqlimiz, chunki N.Ostroumov garchi bir qator o‘zbek adiblarning asarlarini gazetada berish, to‘plamlarini jamlab nashr etishga bosh-qosh bo‘lgan esa-da, uning asosiy maqsadi mahalliy xalqqa mansub madaniy obidalarini o‘zlashtirish, chor hukumati uchun sidqidildan xizmat qilish, o‘zining millat hamda dinini boshqalarnikidan ustun qo‘yish va hatto ko‘zga ko‘ringan adiblarni-da, (masalan, Furqat kabi) o‘z manfaatlarini yo‘lida xizmat qildirishidan iborat bo‘lgan. N.Ostroumov muharrir bo‘lgan gazetada mazkur maqolaning bosilib chiqqanligini izoxlash bir muncha mushkul. Negaki, felyeton muallifi nafaqat tanqid nishini rus amaldorlariga qaratmokda, balki senzuraning beparvoligi, til bilmaslik, tildagi nozik qochirimlarni anglamaslik “Ho‘kandda pork sayohati” maqolasining bosilib chiqishiga sabab bo‘lgan. Mazkur maqoladan so‘ng

“Turkiston viloyatining gazetisi”da Ibrohim Davronning boshqa biror bir asari bosilmagan.

Qisqasi, I.Davron davrning hozirjavob jurnalisti sifatida, jamiyat va millat taqdirida yuz berayotgan har bir o‘zgarishni ilg‘ab turgan va ularga o‘z munosabatini bildirib borgan. Bunga biz yuqorida tilga olgan maqolalar ham ishorat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Po‘latjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy.-Toshkent.1998.-B.487-488
2. Naim Karimov. Cho‘lponning hayoti va ijodiga oid yangi fakt va materiallar. “Cho‘lpon hayoti va adabiy merosi” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon. 2-3-iyun 2000.
3. Cho‘lpon. Adabiyot nadur?. Toshkent. “Cho‘lpon”. 1994.-B.42-43.
4. Ibrohim Davron. “Ash‘ori nisvon”. (litotipografiya). I.I.Vayner Matbaasi. 1914-yil.
5. H.H.Niyoziy. Mukammal asarlar to‘plami. 4 jildlik. 4 jild. Toshkent. 1981.-B.167-168.
6. H.H.Niyoziy. Mukammal asarlar to‘plami. 4 jildlik. 4 jild. Toshkent. 1981.-B.167-168.
7. R.Tojiboyev. Furqatning felyetonnavis izdoshi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2-son. 1989.